

BO'LAJAK LIBOS DIZAYNERINI RASSOM, LOYIXALOVCHI-MUHANDIS, TEXNOLOG, IQTISODCHI, USTA VA TIKUVCHI QILIB TARBIYALASH AFZALLIKLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15514183>

Fayzullayeva Maxliyooy Raxmatilloevna,

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

"Libos dizayni" kafedrasи o'qituvchi

Zokirjonova Malika Ganiyevna

Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada model yaratish jarayonida bo'lajak dizaynerni rassom, loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, usta va tikuvcchi bo'lib ish bajarishga odatlantirish kerakligi, buning uchun esa ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish talabalarning fanga qiziqishini oshirgan holda, bilim saviyasini oshirib, jahon standartlariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash uchun asos bo'lishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Dizayner, rassom, kiyim, texnolog, konstruktor, model, kompozitsiya, loyihalash.

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается необходимость приучать будущих дизайнеров выполнять функции художника, проектировщика-инженера, технолога, экономиста, мастера и швеи в процессе создания модели. Для этого необходимо совершенствовать процесс преподавания профильных дисциплин, повышать интерес студентов к предмету, увеличивать уровень знаний и создавать основу для подготовки кадров, соответствующих мировым стандартам.

Ключевые слова: дизайн, художник, костюм, технолог, конструктор, модель, композиция, проектирование.

ABSTRACT

The article emphasizes the need to train future designers to perform the functions of an artist, design engineer, technologist, economist, master and seamstress in the process of creating a model. To do this, it is necessary to improve the process of teaching specialized subjects, increase students' interest in the subject,

increase the level of knowledge and create a foundation for training personnel that meets world standards.

Keywords: *design, artist, costume, technologist, designer, model, composition.*

KIRISH

Model yaratish jarayonida bo'lajak dizaynerni rassom, loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, usta va tikuvchi bo'lib ish bajarishga odatlantirish kerak. Ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish talabalarning fanga qiziqishini orttirgan holda, bilim saviyasini oshirib, jahon standartlariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash uchun asos bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlari darslarida talabalarning tasviri faoliyatini rivojlantirish jarayoni pedagogik jihatdan o'r ganilsa, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, ixtisoslik fanlarini bog'lay olish xususiyatlarini oshirishning uslubiy samarasi yanada o'sishi mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mavzuni tahlil qilish jarayonida ilmiy bilish usullarining mantiqiylik, izchillik va ob'ektivlikdan keng foydalanilgan. Model yaratish jarayonida bo'lajak dizaynerni rassom, loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, usta va tikuvchi bo'lib ish bajarishga odatlantirish haqida tahlil o'tkazildi. Maqolani yoritish jarayonida F.Z. Ataxanova, G.E. Umarov, N.A. Abduqodirovalarning "O'zbekistonda badiiy dizayn ta'limi: kelib chiqishi, xususiyatlari, muammolari" sarlavhali maqolasida yoritilgan uslubiy ko'rsatmalari va S.A. Yunusxo'jaevaning "Yosh rassomga ta'lim berishda samarali usullardan foydalanish iqtidorli yoshlarning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishining garovidir" nomli maqolasidagi fikrlar, shuningdek, G.K. Xasanbayevaning "Yoshlar uchun kiyim-kechak dizayni spetsifikasi" kitobidagi ma'lumotlar mavzuni tahlil etishda asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kostyumni loyihalash dizayner ijodiining alohida sohasi bo'lib, o'z ish usullari va yo'llariga ega. Barcha loyiha ishlarida inson hayatiy faoliyati uchun qulay bo'lgan va o'zaro uyg'unlashgan buyumlar muhitini shakllantirish masalasi jiddiy tarzda qo'yiladi. Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sanoat odamlarni o'rab turgan yashab muhitini, buyumlar dunyosi qiyofasini o'zgartirib yubormoqda. Bu borada konstruktor - dizaynerning asosiy vazifasi "Inson - buyum - muhit" tizimini o'zaro muvoqiflashtirishdan iboratdir. Buning uchun buyumlarni dizayn-loyihalash, libosda kompozitsiya va rang, dizayn metodologiyasi, tikuv buyumlari texnologiyasi, tikuv

buyumlari konstruksiyasi, iqtisodiyot, estetika, sotsiologiya va boshqa fanlar bo'yicha keng bilimga ega bo'lish talab etiladi.

Ushbu fanlarni o'qitishdan maqsad o'quvchilarga turli badiiy buyumlarni funktsional jihatdan maqsadga muvofiq hamda badiiy jihatdan ko'rkar Shakllarini yaratish borasida bilim berishdan hamda badiiy buyumlarni har tomonlama inson talablariga javob beradigan holatda loyihalash usullarini o'rgatishdan iboratdir.

Libos dizayneri ijodiida "Dizayn-loyihalash" fani juda muhim o'rinni egallaydi. Har qanday eskizdagagi g'oyani ro'yobga chiqarish bir qator o'ziga xos jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bular qatoriga eskizdagagi modelni tahlil qilish, mato va materiallarni to'g'ri tanlash, eskiz asosida model konstruksiyasini tayyorlash, buyumga texnologik ishlov berish usullarini tanlash, bezak berish ishlarni bajarish kiradi. Dizayn yo'nalishidagi oliy ta'lif muassasasiida ixtisoslik fanlarini chuqur o'qitish ta'lifning umumiyligi maqsadlariga xizmat qiladi, ya'ni talabalarning bilimi, mantiqiy tafakkur qobiliyati, ijodiy rivojlanishi hamda o'z-o'zini anglash salohiyatini, dizayn va san'atsho'noslik madaniyatini shakllantiradi. Ularida milliy va umuminso'niy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni tarkib toptiradi hamda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlash, mavjud bilimlarini boyitish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishga yo'naltiradi.

Bir necha dizaynerlarning fikricha "Haqiqiy kasb egasi rassom-modelyorlar o'z faoliyati jarayonida har bir insonning madaniy saviyasini, uning yaxshi xislatlarini kiyim orqali namo'yon qila oladi".

Har qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinni bo'lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarli darajada yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo'lsa, hammasi olib tashlanishi kerak. Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkori borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Badiiy obraz borliq in'ikosiining estetik shakli hisoblanadi. Kiyimning badiiy obrazi bu kiyimning konkret vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiyligi qiyofasi.

Dizayner yaratgan har bir modelning obrazi insonga ta'sir etishga qodir emotsional va ta'sirchan bo'lishi kerak. Kiyim har yerda va hamma vaqt odam bilan birga bo'lib, unga ishonch, qadr-qimmat, optimizm tuyg'ularini baxsh etishi yoki aksincha, uni tushkunlik va xafaalik holatiga duchor qilishi mumkin. Shunday qilib, kiyimning obrazli ifodaviyligiga kompozitsiya san'ati vositasiida, ya'ni kiyimni tashkil etuvchi hajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasiida erishiladi. Modelyorning kiyim va butun kostyum obrazi ustidagi ishi eng muhim jihatga, ya'ni vazifa nuqtai nazaridan qulay,

hayotda o'rini kostyum yaratishga bo'ysundirilibgina qolmay, balki ifodali bo'lishi ham kerak.

Kostyum kompozitsiyasining uyg'un bir butunlik sifatida shaklning yahlitligi, simmetrik va assimetrik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor. Shaklning yahlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtasidagi aloqa mantiqini va uyg'unligini aks ettirib beradi. Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham albatta asosiy qism yoki kompozitsion markaz mavjud bo'lib, boshqa qismlar unga bo'ysundirilish kerak. Asosiy qismi yahlit kompozitsiyada hukmron bo'lib turadi. Kompozitsion markaz libosning istalgan qismida bo'lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko'krakda, bo'ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hokazo yerda bo'ladi. Kostyuming istalgan qismi – masalan, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, sumka, biron bezak va hokazo kompozitsion markaz bo'lishi mumkin. Ust kiyimning istalgan qismi ham – ko'krak qismi, yubka, yenglar, yoqa va boshqalar – kompozitsion markaz bo'lishi mumkin.

Bundan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: manfaatdorlik-texnik va badiiy-estetik jihatlarni hamda murakkab texnologik jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan modellarni yaratish zaruriyati dizaynerni ijodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari – loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, ustalar, ishchilar, ya'ni ishlab chiqarish jamoasining barcha a'zolari bilan ma'lum darajada ishlab chiqarish munosabatlariga kirishishni taqozo etadi. Shuning uchun ham olib borilayotgan mashg'ulotlarida o'qituvchi model yaratish jarayonida talabani loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, usta va tiquvchi bo'lib, ish bajarishga odatlantirishi zarur. Model yaratishning ishlab chiqarish munosabatlarida ishtirokini ta'minlashi kerak.

Libos dizayni sohasida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar kompozitsiyaning qonun-qoidalarini yodda tutgan holda ish olib borishsa, mavzuli loyiha yaratish borasida turli shartlarni to'g'ri bajaradigan, ish olib borish usulini to'g'ri tanlay oladigan bo'ladi. O'qitishning bunday usuliidan foydalanish natijasida biz saralangan abstraktsiyalardan tashkil topgan ta'lim jarayonining umumiyl uslublarini shakllantirish haqidagi zamonaviy psixologlarning tavsiyalariiga amal qilgan bo'lamiz, shuningdek, talabalarning bo'yiga induktsiya va deduktsiya asosida umumlashtirish usullarini singdiramiz. Ikkala usul ham bir-birini to'ldirgan holda, yangi libos namunalarini loyihalash jarayonini jonlantiradi.

XULOSA

Bundan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: manfaatdorlik-texnik va badiiy-estetik jihatlarni hamda murakkab texnologik jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan modellarni yaratish zaruriyati dizaynerni ijodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari – loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, ustalar, ishchilar, ya'ni ishlab chiqarish

jamoasining barcha a'zolari bilan ma'lum darajada ishlab chiqarish munosabatlariga kirishishni taqozo etadi. Shuning uchun ham olib borilayotgan mashg'ulotlarida o'qituvchi model yaratish jarayonida talabani loyihalovchi-muhandis, texnolog, iqtisodchi, usta va tiquvchi bo'lib, ish bajarishga odatlantirishi zarur. Model yaratishning ishlab chiqarish munosabatlarida ishtirokini ta'minlashi kerak.

Libos dizayni sohasida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar kompozitsiyaning qonun-qoidalarini yodda tutgan holda ish olib borishsa, mavzuli loyiha yaratish borasida turli shartlarni to'g'ri bajaradigan, ish olib borish usulini to'g'ri tanlay oladigan bo'ladi. O'qitishning bunday usuliidan foydalanish natijasida biz saralangan abstraktsiyalardan tashkil topgan ta'lim jarayonining umumiyl uslublarini shakllantirish haqidagi zamonaviy psixologlarning tavsiyalariiga amal qilgan bo'lamic, shuningdek, talabalarning bo'yiga induktsiya va deduktsiya asosida umumlashtirish usullarini singdiramiz. Ikkala usul ham bir-birini to'ldirgan holda, yangi libos namunalarini loyihalash jarayonini jonlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI: (REFERENCES)

1. Xasanbayeva G.K. Spetsifika dizayna molodyojnoy odejdi: -Toshkent: 2008 yil. 40-43 betlar.
2. F.Z.Atahanova, A.S.Saidiganieva, S.A.Karimova, G.E.Umarov, N.A.Abdukadirova. "Artistic design education in Uzbekistan: origins, features, problems": Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 884-889. 884 Info@philosophicalreadings.org 10.5281/zenodo.5184686
3. Nargiza A.U. "Effective Options Of The Fashion Recycling In The Concept Of Environmental Sustainability Development". International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 71-73. www.ijeais.org/ijamsr
4. Umarova G.E. "Color Image Creations –As A Source Of Creativity". International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR) ISSN: 2643-9670 Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 191-193
5. F. S. Abdullayeva, S.D. Nishanova, A.Z. Rashidov, M.A. Zaripova, R.E. Dehkanova. "Factors influencing the formation of clothes as a component of ethnic culture in the territory between two rivers in central Asia". Ilkogretim Online - Elementary Education Online, 2020; 19 (4): pp. 832-836 <http://ilkogretim-online.org>
6. Xaitova Z.P., Ibodullayeva D., Azimova F.; Islamic fashion or modest fashion? International scientific and practical conference 'Problems and solutions of design – education and production integration", April 28, 2025